SRARTUP MADANIYATINI YOSHLARGA O`RGATISH: MUVAFFAQIYATSIZLIKDAN QO`RQMASLIK.

Kimsanova Madinaxon Mansurjon qizi
Masofaviy ta'lim Psixologiya yo'nalishi 1- kurs talabasi
Qo'qon universiteti Andijon Fillilali
Telefon:+998950225511
Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li
"Kompyuter Injiniring va raqamli texnologiyalar" kafedrasi o'qituvchisi
Qo'qon universiteti Andijon Fillilali
Email: xalimjonov1234@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda srartup madaniyati va uning yoshlarga ijobiy ta`siritahlil qilinadi. Muvaffaqiyatsislikdan qo`rqmaslik, uni o`sish, tajriba mabai sifatida qarashga qaratiladi. Yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va ularni faol hayotga tayyorlashdagi ahamiyati ko`rsatib beriladi. Ta`lim jarayonida startup madaniyatini tatbiq qilish bo`yivcha takliflar ham ilgari suriladi.*

***Kalit so`lar:*** *startup, yoshlar, g`oyalar, tadbirkorlik, muvaffaqqiyatsizlik, kreativ fikrlash, ta`lim*

Kirish

Bugungi globallashuv va texnika asrida yoshlarni mustaqil fikrlashga,yangilik yaratishga va iqtisodiy faoliyatda faol ishtirok etishga o`rgatish dolzarb vazifalardan biridir. Yoshlarning fikrida muvaffaqiyatsizlikdan qo`rqish emas, balki undan saboq olish, yangicha yondashuvlar izlash va harakatdan to`tamaslikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa startup madaniyatini yoshlarga o`rgatish orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonning mazmuni, muammolari va yechimlar quyida yoritib beriladi.

Asosiy qism:

1. Startup madaniyatining mohiyati

Startup – bu faqat texnologik kompaniya emas, bu – fikr va imkoniyatlarni sinab ko‘rish, ijodiy yondashuvni ishga solish va yangilik qilish demakdir. U muvaffaqiyatsizlikni muvaffaqiyat sari qadamlardan biri deb qaraydi

2. Yoshlar va muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi

Jamiyatda ko‘pincha muvaffaqiyatsizlik salbiy holat sifatida talqin qilinadi. Bu esa yoshlarning yangi tashabbuslardan voz kechishiga sabab bo‘ladi. Maktab va oliy ta’lim tizimida faqat "to‘g‘ri javob" va "mukammallik" talabi bu qo‘rquvni yanada kuchaytiradi.

3. Muvaffaqiyatsizlikdan o‘rganish – startap yondashuvida markaziy tushuncha

Startup ekotizimida "fail fast, learn faster" tamoyili asosiy prinsiplardan biridir. Demak, iloji boricha tez harakat qilish, xato qilish, undan saboq olish va yana urinish startup madaniyatining ajralmas qismidir.

4. Yoshlarni muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqmaslikka qanday o‘rgatish mumkin?

Inson tabiatan muvaffaqiyatsizliklarga ko`p ahamiyat beradi va buni ko`pincha falokat sifatida qabul qiladi. Aslida esa kamchilik va xatolardan ko`ra diqqatni ulardan xulosa chiqarish va yangi strategyalar haqida bosh qotirishga qaratish lozim. Erishilgan kichik yutuqlardan kuch olib harakatda davom etish zarur

Ta’limda amaliy loyihalar va startap simulyatsiyalarni joriy etish

Muvaffaqiyatsizlik haqidagi motivatsion hikoyalarni ulashish

Ilmiy va biznes mentorlik tizimini kuchaytirish

Ijtimoiy tarmoq va media orqali muvaffaqiyatsizlikni normal holat sifatida targ‘ib qilish

5. Startup madaniyatining iqtisodiy va ijtimoiy foydalari

Yangi ish o‘rinlari yaratiladi

Ixtirolar va innovatsiyalar ko‘payadi

Yoshlar orasida ishsizlik kamayadi

Jamiyatda yangilikka ochiqlik kuchayadi

Xulosa

Startup madaniyatini yoshlarga o‘rgatish – bu ularni nafaqat biznesga tayyorlash, balki hayotdagi har qanday sinovga bardoshli, sabrli va ijodkor inson sifatida shakllantirishdir. Muvaffaqiyatsizlikni yengilmas devor emas, balki keyingi bosqichga o‘tish yo‘li sifatida ko‘rishga o‘rgatish – bugungi ta’lim va tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu yo‘lda innovatsion fikrlash, tajriba, va xatolardan o‘rganish madaniyatini singdirish orqali kuchli va raqobatbardosh yosh avlodni tarbiyalash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://startupfactory.uz/uz/category/projects/
2. https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/153546-qiyinchiliklardan-kuch-olish-muvaffaqiyatsizlikni-foydali-yoqilgiga-aylantirish.html